ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№9(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 298 sahifa,
25-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Academic and Translingual Competence as an Integrative Construct in Higher Education: a Theoretical Framework 10
Davronova Fotima Pirnazarovna

Ovqatlanish xulq-atvori buzilgan bemorlarning emotsional va shaxslilik xususiyatlarining klinik-psixologik tahlili 14
Abdumutalibova Mag'firat Mirodil qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tizim modeli 18
Melliyeva Dilfuza O'ralovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5K kompetensiyalarini baholash mezonlari va indikatorlari 24
Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna, Qodirov Zayniddin Zaripovich

Bo'lajak pedagoglarda stressli vaziyatlarda xulq-atvor xususiyatlarini tadqiq etishning psixodiagnostik asoslari 29
Olimova Firuza Aslonovna

Developing the Skill of Evaluating the Reliability of Information Sources in Teaching English 35
Sherimbetova Nasiba Ravshanbek kizi

Tarmoq texnologiyalari fanida sun'iy intellekt asosidagi web-platformaning didaktik imkoniyatlari 42
Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li

Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda sun'iy intellekt imkoniyatlari 48
Abdujabborova Dildora Saidmurot qizi

Pedagogik jarayonlar davomida talaba-yoshlar egallagan faol fuqarolikning ijtimoiy-madaniy ahamiyati 56
Xabibulla Muratov Abduqodirovich

Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarda atrof muhitga munosabatini shakllantirishning zamonaviy usullari 65
Umarova Dildora Nizom qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning obrazli va bog'lanishli nutqini rivojlantirish hamda nutqiy qiyinchiliklarni erta aniqlashning pedagogik-psixologik asoslari 70
Axmedova Muyassar Xadimatovna, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi

Umumta'lim maktabi o'quvchilarida ochiq javobli PISA topshiriqlarining produktiv fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni 76
Xudayberdiyeva Muxayyo Karshiboyevna

Ta'limda interaktiv texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari 86
Xoshimova Maftunabonu Xoshimjon qizi

Yosh kelin-kuyovlarning nikoh orqali kutuvlari va psixologik farovonligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 91
To'lqinboyeva Mahliyoxon Valijon qizi

"Art-pedagogik qobiliyat" tushunchasining mohiyati va tarkibiy komponentlari 95
Bo'ltakova Roziya Xasan qizi

Pathogenetic Rationale for Personalized Therapy of Dentin Hypersensitivity in Patients With Erosive Tooth Lesions 99
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Zoirov Tulqin Elnazarovich

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona axborot tizimlarini tizimli tahlil qilish va modellashtirish 104
Ro'ziyev Bahromjon Rustam o'g'li

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining moliyaviy savodxonligini rivojlantirish mexanizmi va tarkibiy-funksional modeli 108
Berdimurotov Adxam Xayrulla o'g'li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari 113
Umirova Marxabo Abdimannobovna

O'zbek EFL sinflarida talabalarning og'zaki nutq ravonligini mikrointeraktiv sikllar asosida rivojlantirish..... 116
X. S. Malikova

Sun'iy intellektning xorijiy til o'rganuvchilarga yordami: imkoniyatlar va amaliy mashg'ulotlar 120
Ashurova Dildora G'afurovna

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy malakasi va aralash ta'lim sharoitidagi talablari..... 124
Baxtiyorova Maxliyo Baxrom qizi

Refleksiv texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tafakkurini rivojlantirish 127
Xo'janiyozova Gulhayo Ilhomovna

Boshlang'ich ta'limda hikoya janridagi matnlarni o'qitishda STREAM texnologiyasidan foydalanish..... 131
Ahmedova Munisa Xo'sinboy qizi

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil hayot faoliyatiga tayyorlashning korreksion-pedagogik texnologiyasi 137
Jo'rayeva Gulmiraxon Zufarjon qizi

Developing EFL Students' Academic Writing Skills Through Self-Directed Learning Strategies..... 141
Kayumova Gulnoz Abduxalilovna

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi 147
Mavlonova Shaxzoda Turg'unovna

Developing English Communication Skills Among Students in Non-Philological Higher Education Institutions Through Task-Based Learning 151
Mirbabayeva Sabina Sobirjonovna

Indicators for Evaluating and Monitoring the Quality of Foreign Language Education in General Secondary Schools 158
Muxtarova Shafoatbonu Adham qizi

Fizika fanini o'qitishda talabalarning texnologik kompetensiyasi pedagogik tadqiqotning predmeti sifatida... 164
Raxmankulova Dilora Gulomovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi asosida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni 169
Umurova Ma'rifat Yoshiyevna

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak muhandislarning loyihaviy-konstruktorlik faoliyatiga tayyorlash metodikasini ishlab chiqish 175
Uzokov Sherzod Xamidovich

Boshlang'ich ta'limda sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar: imkoniyatlar va istiqbollar..... 180
Akramhonova Maftunaxon Ma'murjon qizi

Mystical Images in the Poetry of Navoi and Mashrab 183
Mamasoliyeva Muslimaxon Alisher qizi

Oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik asoslari: tajriba-sinov natijalarining tahlili..... 188
Muxamadiyev Xojiakbar Aslitdinovich

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish 193
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Abdullayeva Qirmizi Jumatayevna

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning mustaqil o'rganish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 198
Mayliyeva Sadoqat Raximberganovna

Generative Artificial Intelligence in Foreign Language Education: Pedagogical Challenges and the Development of Communicative Competence 202
Latofat Zokir kizi Raximdjanova

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Международные модели подготовки будущих учителей к инклюзивному образованию: сравнительный анализ ключевых компонентов 210
Янкина Эмиля Адыловна

Психологические механизмы формирования читательской мотивации у младших школьников 216
Мадаминова Самидабону Умидбековна

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi destruktiv ziddiyatlarning oldini olishning pedagogik-psixologik vositalari 222
Elbekova E'zoza Jamshid qizi

Badiiy asarni neyropedagogik tahlil materiali sifatida qo'llashning metodik asoslari 227
Shoyimova Shoira Sanakulovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi 231
Toshturdiyeva Tursunoy Muhammadiyevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari 235
Toshtemirova Maftuna Karimovna

Surunkali somatik kasalliklarga chalingan bemorlarning psixologik farovonligini oshirish: psixodiagnostik va psixokorreksion yondashuvlar 240
To'lqinboyeva Mahliyoxon Valijon qizi

Raqamli ta'lim muhitida flipped classroom texnologiyasidan foydalanish 244
Azimova Dilnoza Axmedjonovna

Инкультурация личности и формирование культурной идентичности в школьном образовании 249
Насимджанова Махсума Мажидовна

Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarga ingliz tilini integratsiyalashgan lingvistik kontekstualizatsiya orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish 253
Ayatov Raximberdi Ibragimovich

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash metodikasi 259
Ochilova Gavhar Hamid qizi

Digital Technologies and Artificial Intelligence in English Language Teaching: Pedagogical Opportunities and Challenges 267
Xolliyeva Mashxura Erkinjonovna

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining cholg'u ijrochiligi kreativligini rivojlantirishda fortepiano fanining didaktik imkoniyatlari 270
Normuminova Gulmira Komiljonovna

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini kengaytirish 280
Xudoynazarova Moxira Xakimovna

Pedagogika yo'nalishi talabalarining sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish texnologiyalari 284
Ermatov Sh. L.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 289
Nuriddinova Marjona Erkinovna

Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda madaniy merosning ahamiyati 293
Radjapova Zuxra Tirkashevna

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARGA INGLIZ TILINI INTEGRATSIYALASHGAN LINGVISTIK KONTEKSTUALIZATSIYA ORQALI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ayatov Raximberdi Ibragimovich
Ingliz tili katta o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi (PhD)
Alfraganus Universiteti, Filologiya fakulteti, Jurnalistika va tillar kafedrasi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
ORCID: 0000-0001-7094-3213

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalariga ingliz tilini integratsiyalashgan lingvistik kontekstualizatsiya orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari nazariy va metodik jihatdan yoritiladi. Integratsiyalashgan lingvistik kontekstualizatsiya tilning leksik, grammatik, fonetik va pragmatik birliklarini o'zaro bog'liq holda, muayyan kommunikativ vaziyat hamda bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyati doirasida o'rgatish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Maqolaning maqsadi talabalarning kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish tamoyillari, topshiriqlar tizimi hamda baholash mezonlarini asoslashdan iborat. Metodik yondashuv pedagogik va lingvodidaktik qarashlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda o'quv vaziyatlarini modellashtirishga tayanadi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishni yagona mazmuniy kontekstda birlashtiruvchi kasbiy vaziyatlar, muammoli topshiriqlar, rolli mashqlar va refleksiv faoliyatni tashkil etish yo'llari taklif qilinadi. Talabalarning tayyorgarlik darajasiga mos pedagogik ko'mak, autentik materiallardan maqsadli foydalanish va mezonlarga asoslangan baholash metodikaning muhim tarkibiy qismlari sifatida ko'rsatiladi. Taklif etilayotgan metodik yechimlar til bilimlarini amaliy muloqotga ko'chirish, mustaqil fikrlash va pedagogik hamkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Ularning samaradorligini aniqlash uchun tajriba-sinov tekshiruvi zarurligi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, ingliz tilini o'qitish metodikasi, integratsiyalashgan lingvistik kontekstualizatsiya, kommunikativ kompetensiya, kasbiy kompetensiya, nutq faoliyati turlari integratsiyasi, autentik materiallar, kasbiy kommunikativ vaziyatlar, refleksiv faoliyat, mezonlarga asoslangan baholash.

Abstract: This article examines theoretical and methodological aspects of improving English language teaching for students at pedagogical higher education institutions through integrated linguistic contextualization based on a competency-based approach. Integrated linguistic contextualization is understood as the interconnected teaching of lexical, grammatical, phonetic, and pragmatic language units within a specific communicative situation and the context of future teachers' professional practice. The article aims to substantiate teaching principles, a system of tasks, and assessment criteria designed to develop students' communicative and professional competencies. The methodological approach draws on the analysis, comparison, and synthesis of pedagogical and language teaching perspectives, as well as the modelling of learning situations. It proposes ways to organize professional scenarios, problem-based tasks, role-play activities, and reflective practice that integrate listening, speaking, reading, and writing within a shared meaningful context. Pedagogical support tailored to students' proficiency levels, purposeful use of authentic materials, and criteria-based assessment are presented as essential components of the methodology. The proposed methodological solutions are intended to support the transfer of language knowledge to practical communication, independent thinking, and pedagogical collaboration. The need for empirical testing to determine their effectiveness is emphasized.

Key words: competency-based approach, English language teaching methodology, integrated linguistic contextualization, communicative competence, professional competence, integration of language skills, authentic materials, professional communicative situations, reflective practice, criteria-based assessment.

Аннотация: В статье теоретически и методически рассматриваются вопросы совершенствования методики обучения английскому языку студентов педагогических высших учебных заведений посредством интегрированной лингвистической контекстуализации на основе компетентностного подхода. Интегрированная лингвистическая контекстуализация трактуется как процесс взаимосвязанного обучения лексическим, грамматическим, фонетическим и прагматическим единицам языка в определённой коммуникативной ситуации и в контексте профессиональной деятельности будущего педагога. Цель статьи заключается в обосновании принципов обучения, системы заданий и критериев оценивания, направленных на развитие коммуникативной и профессиональной компетенций студентов. Методический подход опирается на анализ, сопоставление и обобщение педагогических и лингводидактических взглядов, а также моделирование учебных ситуаций. Предлагаются способы организации профессиональных ситуаций, проблемных заданий, ролевых упражнений и рефлексивной деятельности, объединяющих аудирование, говорение, чтение и письмо в едином содержательном контексте. Педагогическая поддержка, соответствующая уровню подготовки студентов, целенаправленное использование аутентичных материалов и оценивание на основе критериев рассматриваются как важные компоненты методики. Предлагаемые методические решения направлены на перенос языковых знаний в практическое общение, поддержку самостоятельного мышления и педагогического сотрудничества. Отмечается необходимость экспериментальной проверки для определения их эффективности.

Ключевые слова: компетентностный подход, методика обучения английскому языку, интегрированная лингвистическая контекстуализация, коммуникативная компетенция, профессиональная компетенция, интеграция видов речевой деятельности, аутентичные материалы, профессиональные коммуникативные ситуации, рефлексивная деятельность, оценивание на основе критериев.

KIRISH

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, axborot bilan ishlash madaniyati va xalqaro pedagogik tajribani o'zlashtirish imkoniyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Talabaning til qoidalarini bilishi muhim bo'lsa-da, ushbu bilimlardan turli muloqot vaziyatlarida maqsadga muvofiq foydalanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta'lim mazmunini amaliy faoliyatga yaqinlashtirish, til birliklarini mazmunli vaziyatlarda qo'llash va o'quv topshiriqlarini kasbiy ehtiyojlarga moslashtirish metodik izlanishlarning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bunday yo'nalish til o'rganish maqsadlarini pedagogik faoliyat talablari bilan izchil uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonini talaba egallagan bilimlar hajmigagina qarab tashkil etish bilan cheklanmaydi. U bilim, ko'nikma, munosabat va tajribaning muayyan vazifani bajarishda birgalikda namoyon bo'lishini nazarda tutadi. Ingliz tili mashg'ulotlarida mazkur yondashuv fikrni tushunarli ifodalash, suhbatdoshni anglash, ma'lumotni tanqidiy baholash hamda hamkorlikda yechim ishlab chiqish imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bo'lajak pedagog uchun bu imkoniyatlar darsni rejalashtirish, ko'rsatma berish, savol tuzish va o'quvchi bilan muloqot qilish jarayonlarida zarurdir [1].

Integratsiyalashgan lingvistik kontekstualizatsiya ushbu vazifalarni amalga oshirishning metodik asosi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Mazkur tushuncha doirasida leksika, grammatika, talaffuz va pragmatik vositalar alohida mashqlar yig'indisi sifatida emas, umumiy kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi birliklar sifatida o'rgatiladi. Masalan, talaba darsdagi tushunmovchilikni bartaraf etishga qaratilgan vaziyatda savol shakllari, aniqlashtirish iboralari, ohang va xushmuomalalik vositalarini birgalikda qo'llaydi. Natijada o'quv materialining mazmuni, undan foydalanish sharoiti va kutilayotgan nutqiy harakat o'rtasidagi bog'lanish aniqlashadi.

O'zbekiston pedagogik oliy ta'limi sharoitida bunday metodikani loyihalash talabalarning til tayyorgarligi, mutaxassislik yo'nalishi, o'quv resurslari va mashg'ulot uchun ajratilgan vaqtni hisobga olishni talab qiladi. Turli tayyorgarlik darajasidagi talabalar uchun bir xil topshiriqning murakkabligi turlicha bo'lishi mumkin. Shuning uchun kontekstni tanlashda tushunarlilik, kasbiy ahamiyat va bosqichma-bosqich murakkablashuv tamoyillari muhimdir. Autentik materiallar ham talabaning ehtiyojiga moslashtirilgan pedagogik ko'mak bilan uyg'unlashtirilgandagina maqsadli o'quv faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi [2].

Maqolada ko'tarilayotgan asosiy muammo til komponentlari, nutq faoliyati turlari va kasbiy vazifalarni yagona topshiriqlar tizimida qanday bog'lash mumkinligidan iborat. Tadqiqotning maqsadi kompetensiyaviy yondashuvga tayangan holda integratsiyalashgan lingvistik kontekstualizatsiya orqali ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari va amaliy yo'llarini belgilashdir. Shu maqsadda kontekst tanlash mezonlari, o'quv faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi, pedagogik ko'mak shakllari va baholash ko'rsatkichlari ko'rib chiqiladi.

Takliflarning amaliy qiymati ularni pedagogik vaziyatlarga moslashtirish imkoniyati bilan izohlanadi, samaradorligi esa alohida tajriba-sinov orqali tekshirilishi lozim. Bunda nazariy asoslangan takliflar bilan empirik tasdiqlangan natijalar o'rtasidagi farq aniq saqlanishi zarur [3].

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ingliz tilini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish masalasi til ta’limi metodikasi, pedagogik texnologiyalar va lingvistik tadqiqotlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishni talab qiladi. Jalolovning chet til o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan darsligi hamda Hoshimov va Yoqubovning qo‘llanmasi til materialini o‘rgatish, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish va mashg‘ulotlarni tashkil etishning metodik asoslarini yoritadi. Ushbu manbalar tadqiqotning umumiy didaktik yo‘nalishini belgilashda muhim tayanch hisoblanadi [4].

Jalolov, Makhkamova va Ashurovning asarida ingliz tili ta’limining nazariy hamda amaliy jihatlari birlashtirilgan. Makhkamova, Alimov va Ziyayevning qo‘llanmasi innovatsion pedagogik texnologiyalarni til mashg‘ulotlariga tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi. Muslimov va hammualliflarning pedagogik kompetentlik haqidagi qarashlari esa bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy sifatlarini rivojlantirish masalasini tadqiqotning kompetensiyaviy yo‘nalishi bilan bog‘lash imkonini beradi [5].

Safarovning pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik va semantikaga oid monografiyalari til birliklarining ma’nosi, tafakkur bilan aloqasi hamda muloqot sharoitida qo‘llanishini tushuntirish uchun nazariy asos yaratadi. Mazkur qarashlar kontekstualizatsiyani faqat mavzuga mos matn tanlash bilan cheklamasdan, kommunikativ maqsad va nutqiy vaziyat bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Azizxo‘jayeva, Tolipov, Usmonboyeva, Sayidahmedov va Ochilovning ishlari metodik modelning pedagogik tuzilishini asoslashga yordam beradi [6].

Ishmuhamedov va hammualliflar, Yo‘ldoshev va Usmonov hamda Xoliqovning asarlari mashg‘ulotlarni tashkil etish va pedagogik mahorat masalalarini boyitadi. Nishonova va hammualliflar talaba rivojlanishining psixologik jihatlarini, Mavlonova va hammualliflar umumiy pedagogik asoslarni yoritadi. Hasanboyev va hammualliflarning lug‘ati tushunchalarni aniqlashtirishda qo‘l keladi. Richards va Rodgers yondashuvlarni qiyoslashga, Nunan esa kommunikativ vazifalarni loyihalashga asos beradi. Ushbu manbalar sintezi taklif etilgan metodikani nazariy jihatdan asoslaydi, biroq uning samaradorligini empirik tekshirish zaruratini bekor qilmaydi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ til ta’limi va kontekstga asoslangan o‘qitish tamoyillarini o‘zaro bog‘lashga qaratilgan nazariy va metodik loyihalashga tayanadi. Tadqiqot doirasida tajriba guruhlari shakllantirilmadi, respondentlardan ma’lumot yig‘ilmadi va statistik samaradorlik ko‘rsatkichlari hisoblanmadi. Shu sababli metodik takliflar empirik natijalar sifatida emas, keyingi amaliy tekshiruv uchun ishlab chiqilgan didaktik yechimlar sifatida taqdim etiladi. Tahlil birligi sifatida kommunikativ maqsad, til materiali, kasbiy vazifa va baholash mezonlarini birlashtiruvchi o‘quv topshirig‘i belgilanadi [8].

Nazariy tahlil kompetensiya, kontekstualizatsiya va integratsiya tushunchalarining mazmunini aniqlashtirishga yo‘naltiriladi. Qiyoslash usuli til birliklarini alohida mashq qildirish hamda ularni mazmunli kommunikativ vaziyatda qo‘llashga asoslangan topshiriqlarning metodik xususiyatlarini farqlash uchun qo‘llanadi. Umumlashtirish orqali topshiriqlarni kasbiy yo‘nalganlik, kommunikativ yaxlitlik, tushunarlilik va refleksivlik mezonlari asosida loyihalash tamoyillari shakllantiriladi. Ushbu mezonlar pedagogika yo‘nalishidagi talabaning kelajak faoliyatiga mos o‘quv mazmunini tanlashga xizmat qiladi [9].

Metodik modellashtirish jarayonida o‘quv faoliyati besh bosqichda tashkil etilishi taklif qilinadi. Dastlab kasbiy vaziyat va muloqot maqsadi aniqlanadi. Keyin talabalar matn, audioyozuv yoki suhbat namunasi orqali vaziyatga tegishli til vositalarini kuzatadi. Navbatdagi bosqichda leksik, grammatik, fonetik va pragmatik xususiyatlar birgalikda tahlil qilinadi. Shundan so‘ng juftlik yoki guruhda kommunikativ vazifa bajariladi. Yakunda yaratilgan nutqiy mahsulot mezonlar asosida baholanib, talabaning tanlovlari va qiyinchiliklari yuzasidan refleksiya tashkil etiladi [10].

Topshiriqlar mazmuni darsni boshlash, o‘quvchiga tushuntirish berish, hamkasb bilan mashg‘ulotni rejalashtirish va pedagogik muammoni muhokama qilish kabi vaziyatlar asosida belgilanadi. Har bir vaziyatda tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish umumiy maqsadga bo‘ysundiriladi. Masalan, talabalar dars parchasini tinglaydi, tegishli ko‘rsatmalarni o‘qiydi, muqobil tushuntirishni muhokama qiladi va qisqa yozma tavsiya tayyorlaydi. Integratsiya faoliyat turlarining shunchaki almashinuvi bilan emas, ular orasidagi mazmuniy bog‘liqlik bilan belgilanadi [11].

Differensiallashtirish talabalarga tayanch iboralar, namunaviy savollar, qisqartirilgan matnlar yoki qo‘shimcha murakkablashtiruvchi shartlar berish orqali amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Pedagogik ko‘mak miqdori topshiriq maqsadini o‘zgartirmagan holda moslashtiriladi. Baholash uchun vazifaning bajarilishi, mazmunning izchilligi, til vositalarining mosligi, nutqning tushunarliligi va hamkorlikdagi ishtirok mezonlari taklif etiladi. Har bir mezon kuzatiladigan harakatlar orqali tavsiflanib, baholashning shaffofligini ta’minlashga yo‘naltiriladi [12].

Keyingi tajriba tekshiruvi uchun boshlang‘ich va yakuniy topshiriqlarning murakkabligi hamda baholash mezonlarini tenglashtirish zarur. Yozma ishlar, og‘zaki chiqishlar va kuzatuv qaydlari birgalikda o‘rganilishi

mumkin. Ishtirokchilarning roziligi, ma'lumotlarning maxfiyligi va baholovchilar kelishuvini ta'minlash rejalashtiriladigan empirik bosqichning asosiy talablaridir. Bunday tekshiruv metodikaning imkoniyatlari bilan birga cheklovlarini ham aniqlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil va metodik modellashtirish asosida ingliz tilini integratsiyalashgan lingvistik kontekstualizatsiya orqali o'qitishga mo'ljallangan metodik model taklif etildi. Modelning asosiy natijasi kommunikativ maqsad, kasbiy vaziyat, til vositalari, nutqiy faoliyat va baholashni yagona o'quv vazifasi doirasida bog'lashdan iborat. Bunda natija tushunchasi talabalarda tajriba orqali qayd etilgan o'zgarishlarni emas, ishlab chiqilgan metodik tuzilma va uning tarkibiy yechimlarini ifodalaydi. Model pedagogik faoliyatga tegishli mazmunni til o'rganish jarayonining tashkil etuvchi omili sifatida belgilaydi [13].

Modelda kontekst tanlashning o'zaro bog'liq mezonlari aniqlandi. Vaziyat bo'lajak pedagog faoliyatiga mos, talabaga tushunarli va muloqot uchun yetarli muammoli mazmunga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, topshiriq yakunida kuzatiladigan nutqiy mahsulot yaratilishi nazarda tutiladi. Bunday mahsulot og'zaki tushuntirish, yozma tavsiya, dars ko'rsatmasi yoki hamkorlikda tayyorlangan reja shaklida bo'lishi mumkin. Ushbu talablar o'quv materialini faqat mavzu bo'yicha emas, undan foydalanish maqsadi asosida tanlash imkonini beradi.

Til komponentlarini integratsiyalash uchun ularning kommunikativ vazifaga xizmat qilish xususiyati asos qilib olindi. Masalan, o'quvchiga muloyim tavsiya berishda tegishli leksika, modal tuzilmalar, gap urg'usi va pragmatik moslik birgalikda ko'rib chiqiladi. Shu tariqa grammatik to'g'rilik baholashning yagona markazi bo'lib qolmaydi. Fikrning tushunarliligi, vaziyatga muvofiqligi va suhbatdoshga ta'siri ham hisobga olinadi. Bu yechim til bilimlari bilan kasbiy muloqot talablari orasidagi aloqani topshiriq darajasida ochib beradi [14].

Nutq faoliyati turlarini birlashtirishning mazmuniy ketma-ketligi ishlab chiqildi. Tinglangan yoki o'qilgan material keyingi suhbat uchun axborot manbai, suhbat davomida shakllangan fikrlar esa yozma mahsulot uchun asos vazifasini bajaradi. Masalan, talabalar darsdagi tushunmovchilik tasvirini o'rganib, sabablarni muhokama qiladi va o'quvchiga mos tushuntirish matnini yaratadi. Bunda har bir faoliyat keyingisiga zarur mazmunni yetkazadi. Natijada topshiriqlar o'rtasidagi bog'lanish tashkiliy almashinuv emas, axborotdan maqsadli foydalanish orqali ta'minlanadi.

Baholash yechimi sifatida kuzatiladigan faoliyatga tayangan mezonlar tizimi taklif qilindi. Unda kommunikativ vazifaning bajarilishi, mazmun izchilligi, til vositalarining mosligi, nutq tushunarliligi va hamkorlikdagi ishtirok ajratildi. O'zini baholash hamda o'zaro baholash savollari mazkur mezonlarga moslashtiriladi. Talaba qaysi ifoda maqsadga xizmat qilganini, qayerda tushunmovchilik yuzaga kelganini va keyingi urinishda nimani o'zgartirishini izohlaydi. Shunday qilib, refleksiya umumiy taassurot bildirishdan aniq nutqiy qarorlarni tahlil qilishga yo'naltiriladi [15].

Differensial pedagogik ko'mak modelning moslashuvchan tarkibi sifatida belgilandi. Tayanch iboralar va namunalar yordamida umumiy kommunikativ maqsad saqlanadi, mustaqillik darajasi esa bosqichma-bosqich oshiriladi. Biroq ushbu yechimlarning o'zlashtirish, motivatsiya yoki kasbiy kompetensiyaga ta'siri hozircha o'lchanmagan. Shuning uchun taqdim etilgan natijalar amaliy sinov uchun asos bo'lib, samaradorlik haqidagi qat'iy da'volarni bildirmaydi.

Taklif etilgan metodik modelning asosiy ahamiyati til o'rganishni bo'lajak pedagog bajaradigan kommunikativ harakatlar bilan bog'lashida namoyon bo'ladi. Bunday tashkil etilgan mashg'ulotda leksik yoki grammatik birlikning o'zlashtirilishi undan qanday maqsadda foydalanish bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Bu holat kompetensiyaviy yondashuvning faoliyatga yo'naltirilgan mazmuniga mos keladi. Biroq kasbiy vaziyatning mavjudligi o'z-o'zidan sifatli o'rganishni kafolatlamaydi. Topshiriq talabaning til imkoniyatlariga mos kelishi, aniq maqsadga ega bo'lishi va mazmunli javob yaratishni talab qilishi zarur [16].

Integratsiyalashgan lingvistik kontekstualizatsiyani qo'llashda til shakliga e'tibor bilan erkin muloqot o'rtasidagi muvozanat muhimdir. Faqat mazmunni yetkazishga urg'u berish ayrim xatolarning takrorlanishiga olib kelishi mumkin. Har bir xatoni darhol tuzatish esa fikr almashish uzluksizligini buzishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois o'qituvchi vazifani bajarish davomida muloqotga to'sqinlik qiluvchi qiyinchiliklarni ajratishi, boshqa til xususiyatlarini keyingi tahlilda muhokama qilishi maqsadga muvofiq. Tuzatishning vaqti topshiriq maqsadi bilan belgilanadi.

Modelning amaliy qo'llanishi o'qituvchidan puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Kasbiy vaziyat yaratish, mos material tanlash, pedagogik ko'makni belgilash va baholash tavsiflarini ishlab chiqish qo'shimcha vaqt oladi. Tayyor materiallardan foydalanilganda ham ularning madaniy mazmuni, til murakkabligi va pedagogik ahamiyatini tekshirish zarur. Ayniqsa, autentik matnni haddan tashqari soddalashtirish uning kommunikativ xususiyatlarini yo'qotishi mumkin. Murakkab materialni ko'maksiz taqdim etish esa talabaning vazifadan chekinishiga sabab bo'lishi ehtimoli mavjud. Moslashtirish mazmun va tushunarlilik muvozanatini saqlashi kerak.

Talabalarning tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘lgan guruhlarda hamkorlik faoliyati alohida tashkil etilishi lozim. Aks holda, tilni yaxshi biladigan talabalar asosiy nutqiy vazifalarni egallab, boshqalarning ishtiroki cheklanishi mumkin. Rollarni almashtirish, individual tayyorgarlik vaqtini ajratish va har bir ishtirokchidan muayyan mahsulot talab qilish mazkur xavfni kamaytirishga qaratilgan yechimlardir. Biroq ularning samarasini kuzatuv orqali tekshirish talab etiladi. Guruh mahsulotining sifati har bir talabaning individual kompetensiyasini to‘liq ifodalamasligi ham hisobga olinishi zarur.

Baholash mezonlarining kengayishi metodikaning afzalligi bilan birga murakkabligini ham belgilaydi. Kommunikativ moslik, tushunarlilik va hamkorlikni baholashda o‘qituvchining subyektiv qarashlari ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun mezonlar aniq tavsiflar hamda namunaviy javoblar bilan mustahkamlanishi lozim. O‘zaro baholashdan oldin talabalarni ushbu tavsiflardan foydalanishga o‘rgatish zarur. Grammatik aniqlik bilan kasbiy mazmunning salmog‘i ham oldindan tushuntirilsa, talaba kutilayotgan faoliyatni yaxshiroq anglaydi. Bu talab baholashni o‘qitish jarayonining tushunarli tarkibiga aylantirishga xizmat qiladi.

Mazkur ishning cheklovi empirik tekshiruv o‘tkazilmaganidir. Modelning turli yo‘nalishlar, til darajalari va guruh hajmlariga mosligi hozircha ochiq masaladir. Keyingi tadqiqotlarda individual rivojlanish, bilimlarni yangi vaziyatga ko‘chirish va o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarning saqlanishini o‘rganish takliflarning amaliy qiymatini aniqlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ingliz tilini integratsiyalashgan lingvistik kontekstualizatsiya orqali o‘qitish bo‘lajak pedagogning til bilimlari va kasbiy faoliyati o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashga yo‘naltirilgan metodik imkoniyat sifatida tavsiflandi. Ushbu yondashuv doirasida til birliklari kommunikativ maqsad, vaziyat shartlari va suhbatdosh ehtiyojlari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Shuning uchun o‘qitish mazmunini belgilashda grammatik mavzular ketma-ketligi bilan birga talaba bajarishi kutilayotgan nutqiy harakatlarni ham hisobga olish zarur. Bunda kasbiy mazmun til o‘rganish vazifalarini aniqlashtiruvchi asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ishlab chiqilgan metodik model kommunikativ maqsadni belgilash, vaziyatga kirish, til vositalarini tahlil qilish, amaliy topshiriqni bajarish va refleksiv baholash bosqichlarini birlashtiradi. Mazkur bosqichlar o‘rtasidagi bog‘lanish talabaning tayyor namunani tushunishdan mustaqil nutqiy mahsulot yaratishga o‘tishini tashkil etishga qaratilgan. Modelning yaxlitligi alohida mashqlar soni bilan emas, har bir faoliyatning umumiy vazifaga qo‘shadigan hissasi bilan belgilanadi. Shu bois mashg‘ulotni loyihalashda faoliyatlar ketma-ketligining mazmuniy zarurati tekshirilishi lozim.

Metodik takliflarning muhim jihati leksik, grammatik, fonetik va pragmatik komponentlarni kasbiy muloqot vazifasida uyg‘unlashtirishdir. Bunday tashkil etish talabaning ifoda tanlashini vaziyatga muvofiqlik nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish esa bir-biriga axborot yetkazuvchi faoliyatlar sifatida bog‘lanadi. Natijada o‘quv topshirig‘i til shakllarini takrorlash bilan cheklanmay, tushuntirish, aniqlashtirish, dalillash va hamkorlikda qaror ishlab chiqish kabi pedagogik harakatlarni mashq qilishga yo‘naltiriladi.

Metodikani qo‘llashda talabalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish, ko‘makni moslashtirish va mustaqil ishtirokni ta’minlash zarur. Tayanch iboralar, namunalar hamda yo‘naltiruvchi savollar vaqtinchalik yordam vositalari sifatida qo‘llanishi mumkin. Ularning miqdori talabaning ehtiyojiga qarab kamaytirilishi lozim. Guruh topshiriqlarida individual mas’uliyatni saqlash ham muhimdir. Har bir talabaning og‘zaki yoki yozma hissasini kuzatish o‘qituvchiga umumiy mahsulot ortida yashirinib qolishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa keyingi topshiriqlarni asosli moslashtirishga yordam beradi.

Baholash tizimi kommunikativ vazifaning bajarilishi, mazmun izchilligi, til vositalarining mosligi, tushunarlilik va hamkorlikdagi ishtirokni qamrab olishi taklif etildi. Mezonlarning oldindan tushuntirilishi hamda kuzatiladigan belgilar bilan tavsiflanishi baholash shaffofligini qo‘llab-quvvatlaydi. Refleksiya jarayonida talaba muvaffaqiyatli ifodalarini, uchragan qiyinchiliklarini va keyingi harakatlarini aniqlaydi. Shu tariqa baholash faqat yakuniy mahsulotga munosabat bildirish vazifasini bajarmay, o‘quv jarayonini tartibga soluvchi vosita sifatida ham qo‘llanishi mumkin. Buning uchun fikrlar aniq dalillarga tayanishi zarur.

Taqdim etilgan model nazariy va metodik xarakterga ega bo‘lib, uning samaradorligi empirik tasdiqlanmagan. Kelgusida tenglashtirilgan topshiriqlar, izchil baholash tartibi va individual rivojlanish kuzatuvlari asosida tajriba o‘tkazish zarur. Bunday tekshiruv modelning qo‘llanish shartlarini, cheklovlarini va takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ayatov, R.I. (2026). Methodology for Developing Students’ Integrated Professional-Communicative Competence in EMI (English-Medium Instruction) Settings in Higher Education. The Journal of Interdisciplinary Human Studies, 9(2). E-ISSN: 3069-8375. DOI: 10.57033/mijournals-2026-9-0169.

2. Ayatov, R.I. (2026). Mazmun va tilni integrallashgan holda o‘qitish (CLIL) asosida talabalarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetentligini oshirish usullari. Ekonomika i sotsium, 03(142). DOI: 10.18581/202.
3. Ayatov, R.I. (2026). OTMda ingliz tilini o‘qitishda integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuvning metodik asoslari va samaradorligi. Pedagogik mahorat, 5-son, 303-b. (Iyun, 2026).
4. Ayatov, R.I. (2026). Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida “Content-Based Instruction” (CBI) vositasida integrativ nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish: Konseptual lingvodidaktik model. Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta’limning o‘rni..., 18(1).
5. Ayatov, R.I. (2026). Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida kasbiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning integrativ metodologiyasi: PBL va TBLT konseptlari konvergensiyasi. Global Research and Academic Innovations, 7(1).
6. Ayatov, R.I. (2025). OTMda ingliz tilini o‘qitishda integrativ kompetentsiyani rivojlantirishning amaliyotdagi holati. Экономика и социум, 9(136).
7. Ayatov, R.I. (2025). Ingliz tilini o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuv asosida til ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribalari. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, 6/4-son. (Noyabr-dekabr 2025).
8. Ayatov, R.I. (2025). Talabalarga ingliz tilini o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuv asosida til ko‘nikmalarini rivojlantirish. Научный импульс, 37(100), qism-1.
9. Ayatov, R.I. (2025). Zamonaviy “ELT” metodlari asosida integrativ kompetensiyaviy yondashuv orqali talabalarda til ko‘nikmalarini rivojlantirish. Pedagogik mahurat, 11-son. (Noyabr 2025).
10. Ayatov, R.I. (2025, March 27-28). Data-driven insights in Education: Leveraging analytics for holistic development. 1st International conference on frontier technologies and solutions (ICFTS’25). ICFTS-25-T1-767.
11. Mirbabayeva, S.S. World Bulletin of Education and Learning (WBEL). Methodological mechanisms for enhancing the effectiveness of English language teaching based on digital education technologies. Volume 01, Issue 03, December 2025, 288-301 p.p.
12. Mirbabayeva, S.S. Scopus maqola: Effective models for developing interactive communication among students through artificial intelligence. Lex Localis; Maribor. Vol-23. №-S6. 2717-2714 b.b. 2025.
13. Mirbabayeva, S.S. Ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv asosida talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi. “Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў” Илимий-методикалық журнал. 6/3-son, 2025.
14. Mirbabayeva, S.S. OTMda ingliz tilini o‘qitishda integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuvning metodik asoslari va samaradorligi. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN 2181-6883, 5-son, 303-b. (2026-yil, iyun).
15. Kayumova, G.A. Inter Education and Global Study. Inspiration for the modern researcher. Ingliz tili misolida o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali talabalarni yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari, 2024 (463-470 betlar). https://oak.uz/pages/4802
16. Kayumova, G.A. Western European Journal of Linguistics & Education, Volume 2. Issue 10. October 2024. Modern methods in teaching English for non-philology university students. View of Modern Methods in Teaching English for Non-Philology University Students.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.